

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.17213475>

INVESTITSION OQIMLAR, YASHIL IQTISODIYOT VA OZIQ-OVQAT XAVFSIZLIGI: O'ZBEKISTONNING YASHIL IQTISODIYOT YO'NALISHIDAGI TAHLIL

Tolipova Baxtigul Farxodovna

Xalqaro Nordik universiteti, ORCID: 0000-0003-1675-6825

b.tolipova@nordicuniversity.org

Annotatsiya - Ushbu ilmiy tadqiqot O'zbekistonning agro-oziq-ovqat sektoridagi investitsion faoliyat va yashil iqtisodiyot konsepsiysi doirasidagi transformatsion jarayonlarning kesishgan nuqtalarini tahlil qiladi. So'nggi statistik ma'lumotlar va xalqaro manbalar asosida aniqlanishicha, korxona darajasida investitsion samaradorlik, yashil moliyaviy vositalar hamda qayta tiklanuvchi energiya texnologiyalarining joriy etilishi bo'yicha empirik dalillar yetarli darajada o'r ganilmagan. Metodologik yondashuv sifatida panel ma'lumotlar asosidagi iqtisodiy modellar, farqlar usuli (DID), Propensity Score Matching (PSM-DID) hamda mahsuldarlik indekslari qo'llanilgan. Olingan natijalar shuni ko'rsatadiki, umumiy investitsiya oqimlari va yashil moliyalashtirish tashabbuslari ortib bormoqda, biroq ularning korxona darajasidagi samaradorlik va ekologik barqarorlikka ta'siri hanuz aniq shaklda namoyon bo'lmagan. Muhokama jarayonida esa samaradorlikka asoslangan moliyaviy vositalar, green bond'lar uchun mustaqil sertifikatlash mexanizmlarini joriy etish va agro-oziq-ovqat tizimlarida qayta tiklanuvchi texnologiyalarini keng integratsiya qilish zarurligi alohida ta'kidlanadi. Tadqiqot yakunida O'zbekistonning "Yashil iqtisodiyot strategiyasi – 2030" doirasidagi ustuvor yo'nalishlarni amalga oshirishga doir ayrim tavsiyalar ishlab chiqiladi.

Kalit so'zlar: Investitsion oqimlar, barqaror rivojlanish, texnologiya, oziq-ovqat, moliyalashtirish, xavfsizlik, samaradorlik.

KIRISH

So'nggi yillarda yashil iqtisodiyotga yo'naltirilgan investitsiyalar va oziq-ovqat xavfsizligi masalalari global miqyosda ilmiy hamjamiyat hamda siyosiy muhokamalarning markaziy mavzularidan biriga aylandi. Jahon banki, FAO, UNCTAD, IEA kabi xalqaro tashkilotlar ushbu sohalarda keng ko'lamli statistik ma'lumotlar va analitik hisobotlarni taqdim etib kelmoqda. Shunga qaramay, mavjud ilmiy izlanishlarning asosiy qismi makroiqtisodiy ko'rsatkichlar bilan chegaralanib, korxona darajasidagi investitsion samaradorlik va yashil moliyalashtirish vositalarining amaliy natijalariga yetarli darajada e'tibor qaratmayapti.

Xususan, O'zbekiston singari rivojlanayotgan mamlakatlarda agro-oziq-ovqat sektorida investitsiyalarning barqaror rivojlanishga qo'shgan hissasini empirik asosda baholash zarurati dolzarb masalaga aylanmoqda. Yashil iqtisodiyot konsepsiysi doirasida investitsiyalarning samarali yo'naltirilishi nafaqat ishlab chiqarish hajmlarini kengaytirish, balki oziq-ovqat xavfsizligini mustahkamlash, ekologik barqarorlikni ta'minlash va aholining sifatli mahsulotlarga bo'lgan ehtiyojini qondirish imkonini beradi.

Shu nuqtai nazardan, tadqiqotning ilmiy yangiligi shundaki, u O‘zbekiston agro-oziq-ovqat sanoatidagi investitsion jarayonlarni yashil iqtisodiyot tamoyillari asosida kompleks tahlil qilishni maqsad qilib qo‘yadi. Bunda investitsiya samaradorligi, moliyalashtirish mexanizmlari, yashil texnologiyalarni joriy etish, shuningdek, ushbu jarayonlarning oziq-ovqat xavfsizligiga ta’siri chuqur o‘rganiladi.

Mazkur ishning amaliy ahamiyati shundaki, u mamlakat miqyosida yashil iqtisodiyotga asoslangan investitsiya siyosatini takomillashtirish, xalqaro moliya institutlari resurslaridan samarali foydalanish hamda davlatning oziq-ovqat xavfsizligi strategiyasini amalga oshirish uchun zarur bo‘lgan ilmiy tavsiyalarni ishlab chiqishga xizmat qiladi.

ADABIYOTLAR SHARHI

Xalqaro adabiyotlarda yashil moliyalashtirish vositalarining, xususan yashil obligatsiyalarning iqtisodiy va ekologik natijalari keng yoritilgan. Flammer (2020) yashil obligatsiyalar korporativ ekologik samaradorlikni oshirishga yordam berishini asoslagan. Lin, Du va Ren (2022) yashil obligatsiyalarning yashil texnologik innovatsiyalarni rag‘batlantirishdagi rolini empirik jihatdan tasdiqlagan. Zhang va hammualliflar (2024) esa green bond emissiyasi korxonalar innovatsion faoliyatini kuchaytirishi va yangi texnologiyalarni joriy etishga yordam berishini ta’kidlaydi. Shu bilan birga, MIT CEEPR va ScienceDirect tadqiqotlarida yashil obligatsiyalar investor ishonchi uchun muhim signal bo‘lsa-da, greenwashing xavfi ham mavjudligi qayd etilgan (CEEPR, 2023).

Yashil moliyalashtirish bozoridagi muhim tushunchalardan biri — bu “greenium”, ya’ni yashil obligatsiyalarning odatiy obligatsiyalarga qaraganda pastroq foiz stavkalari bilan chiqarilishi. AQSH Federal rezerv hisobotida greenium mavjudligi va emissiya shartlari bilan bog‘liqligi tahlil qilingan (Federal Reserve, 2023). Demski (2025) BIS sharhida esa green bond bozori o‘sib borayotgani va karbon intensiv korxonalar tomonidan emissiya qilinganda chiqindilarning qisqarishi kuzatilgani qayd etiladi. Shu bilan birga, rivojlanayotgan mamlakatlar bozorlarida yashil obligatsiyalar ta’siri yetarli darajada empirik o‘rganilmagan.

Markaziy Osiyo mintaqasida yashil iqtisodiyot va oziq-ovqat xavfsizligi masalalari ham o‘rganilgan. Kurmanov, Kabdullina, Baidakov va Kabdolla (2025) qayta tiklanuvchi energiya resurslaridan foydalanish oziq-ovqat xavfsizligiga ijobiyligi ta’sir ko‘rsatishini empirik jihatdan ko‘rsatgan, biroq ularning ishlari asosan makroiqtisodiy ko‘rsatkichlarga qaratilgan. O‘zbekiston bo‘yicha Egamberdiev va hammualliflar (2025) “Yashil iqtisodiyot strategiyasi – 2030” doirasidagi islohotlarning institutsional ahamiyatini yoritgan. OECD (2023) esa mamlakat yashil iqtisodiyotga o‘tishda moliyaviy bozorlarni rivojlantirish zarurligini ta’kidlaydi. Biroq, korxona darajasidagi investitsion samaradorlik va yashil moliyalashtirish vositalarining natijalari bo‘yicha ilmiy dalillar hanuz yetarli emas.

Yashil obligatsiyalar korporativ ESG (Environmental, Social, Governance) ko‘rsatkichlarini yaxshilash va reputatsiyani mustahkamlash vositasi sifatida ham tahlil qilingan. ResearchGate va Nature jurnallarida chop etilgan maqolalarda yashil obligatsiyalar kompaniyaning ekologik mas’uliyatini oshirishi, investorlar oldida

ishonchligini kuchaytirishi va risk profilini pasaytirishi mumkinligi ta'kidlangan (Zhang & Kartun-Giles, 2025; Zhao et al., 2024). Ammo O'zbekiston korxonalarida ESG tizimi hali to'liq shakllanmaganligi sababli, ushbu yo'nalishda empirik dalillar yetarli emas.

Umuman olganda, mavjud adabiyotlar yashil moliyalashtirishning global va mintaqaviy darajada muhimligini ko'rsatadi, ammo O'zbekiston sharoitida bu masalalar hali yetarlicha o'rganilmagan. Xususan, korxona darajasida yashil investitsiyalarning samaradorligini empirik baholash, yashil moliyaviy vositalarning amaliy natijalarini aniqlash va ularni oziq-ovqat xavfsizligi bilan bog'lash zarur. Shu bois, mazkur tadqiqot ushbu ilmiy bo'shliqni to'ldirishga qaratilgan.

METODOLOGIYA

Ushbu tadqiqot panel ma'lumotlarga asoslangan iqtisodiy modellashtirish yondashuviga tayangan miqdoriy dizaynni qo'llaydi. Ma'lumotlar O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi, Juhon banki World Development Indicators (WDI), FAO, Xalqaro energetika agentligi (IEA) va UNCTAD bazalaridan olingan.

Asosiy natija ko'rsatkichlari sifatida umumiyl omillar samaradorligi (Total Factor Productivity – TFP) va aktivlarning rentabelligi (Return on Assets – ROA) qo'llaniladi. Mustaqil o'zgaruvchilar sifatida yashil moliyalashtirish vositalari (green bond'lar, subsidiyalar va soliq imtiyozlari) hamda qayta tiklanuvchi energiya texnologiyalarini joriy etish darajasi tanlangan. Shu bilan birga, nazorat o'zgaruvchilar sifatida korxona hajmi, leverage darajasi va asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlar qo'shilgan.

Metodologik yondashuvda farqlar usuli (Difference-in-Differences – DID), Propensity Score Matching (PSM-DID) hamda panel fiksirovka effektlari regressiyalari qo'llaniladi. Mustahkamlash uchun esa 2 bosqichli instrumental o'zgaruvchilar usuli (2SLS) yordamida endogenlik muammolari nazorat qilinadi.

Shunday qilib, metodologiya investitsiyalarning samaradorlikka ta'sirini aniqlash va yashil moliyaviy vositalar hamda qayta tiklanuvchi energiyaning iqtisodiy va ekologik natjalardagi rolini empirik asosda baholash imkonini beradi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Tahlil natijalari shuni ko'rsatadiki, O'zbekistonda asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar hajmi 2023 yildagi 33,3 mlrd. AQSH dollaridan 2024 yilda 42,6 mlrd. dollarga oshib, 28 foizlik o'sishni namoyon etdi (World Bank, 2025). Shu bilan birga, agrar sektorning yalpi ichki mahsulotdagi ulushi 18,3 foiz darajasida saqlanib qolmoqda.

Global miqyosda esa toza energiya investitsiyalari 2025 yilda 2,2 trln. AQSH dollariga yetgan bo'lib, bu ko'rsatkich organik yoqilg'ilarga yo'naltirilgan investitsiyalardan (1,1 trln. dollar) ikki baravar ko'p ekanligini ko'rsatadi (IEA, 2025).

O'zbekistonda yashil moliyalashtirish bozori endigina shakllanish bosqichida. 2023 yilda davlat tomonidan 4,25 trln. so'mlik suveren green bond emissiyasi amalga oshirildi, shuningdek, jami 2500 MVt quvvatdagi qayta tiklanuvchi energiya loyihalari

rivojlantirilmoqda. Biroq, korxona darajasida investitsion samaradorlikning aniq empirik dalillari hozircha yetarli emas.

Yuqoridagi statistik ma'lumotlar bevosita mamlakat makroiqtisodiy ko'rsatkichlariiga ta'sir ko'rsatuvchi indekatorlar bo'lgani sabab quyidagi makroiqtisodiy tahlil mantiqiy davom sifatida tahlilga kiritish maqsadli deb topildi.

O'zbekiston iqtisodiyoti 2020–2024 yillarda barqaror o'sish tendensiyasini ko'rsatdi. Jadvaldagi ma'lumotlarga ko'ra, yalpi ichki mahsulot (YaIM) hajmi 2020-yildagi \$60,8 mlrd.dan 2024-yilda \$110,1 mlrd.ga oshib, qariyb 81% o'sishni ta'minladi. Bunda 2021-yilda kuzatilgan 7,4%lik yuqori o'sish pandemiyadan keyingi tiklanish jarayonlari bilan izohlanadi. Keyingi yillarda esa iqtisodiy o'sish 5,3–5,7% atrofida barqarorlashgan bo'lib, bu rivojlanayotgan iqtisodiyotlar uchun sezilarli natijadir.

1-jadval.

O'zbekistonning makroiqtisodiy va agrosanoat ko'rsatkichlari dinamikasi¹⁸ (2020-2024 yy.)

Year	YaIM (current US\$ bln)	YaIM growth (%)	Population (mln)	YaIM per capita (US\$)	Food insecurity severe (%)	Agriculture share of YaIM (%)
2020	60,8	1,9	34,2	1778	6,5	27
2021	69,2	7,4	34,8	1990	6,2	26,1
2022	80,4	5,7	35,5	2264	6	25,2
2023	95,3	5,5	36	2646	5,8	24,3
2024	110,1	5,3	36,5	3015	5,6	23,5

Aholi soni shu davr mobaynida 34,2 mln.dan 36,5 mln.ga ko'paydi, bu esa resurslarga va oziq-ovqat ta'minotiga bo'lgan bosimni oshirmoqda. Shu sababli jon boshiga to'g'ri keladigan YaIM 2020-yildagi \$1 778 dan 2024-yilda \$3 015 ga oshgan bo'lsa-da, bu hali ham rivojlangan davlatlar darajasidan ancha pastdir.

FAO FIES ko'rsatkichlari bo'yicha kuchli oziq-ovqat xavfsizsizligi 2020-yildagi 6,5%dan 2024-yilda 5,6%gacha kamaygan. Bu ijobjiy o'zgarish davlatning oziq-ovqat xavfsizligi siyosatlari, subsidiyalar va xalqaro dasturlar ta'sirida yuz bergenini ko'rsatadi. Biroq, qishloq xo'jaligining YaIMdagi ulushi 27%dan 23,5%gacha pasaygan. Bu iqtisodiyotda diversifikatsiya jarayoni va sanoat hamda xizmatlar sektorining o'sishi bilan bog'liq bo'lsa-da, agrar sektor samaradorligi va yashil texnologiyalar joriy etilishini tezlashtirish zaruriyatini ko'rsatadi.

Olingan natijalar ikki tomonlama tendensiyani namoyon qilmoqda. Bir tomonidan, O'zbekistonda umumiyligi investitsiyalar hajmi izchil o'smoqda, biroq korxona darajasidagi samaradorlik ko'rsatkichlari bo'yicha empirik dalillar yetarli emas. Bu esa investitsiyalarning samarali taqsimlanishi va resurslardan foydalanishning optimal darajada emasligini ko'rsatadi.

¹⁸ <https://data.worldbank.org>, <https://www.fao.org/> statistic ma'lumotlaridan foydalanildi.

Global miqyosda toza energiyaga yo‘naltirilgan investitsiyalar tez sur’atlar bilan oshib bormoqda. Shu bilan birga, BMTning Savdo va taraqqiyot bo‘yicha konferensiyasi (UNCTAD, 2025) ma’lumotlariga ko‘ra, 2024 yilda rivojlanayotgan iqtisodiyotlarga yo‘naltirilgan to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar hajmi 11 foizga kamaygan. Bu holat, xususan, Markaziy Osiyo davlatlari uchun moliyaviy resurslarni jalg etishdagi barqarorlik xavfini kuchaytiradi.

O‘zbekistonda yashil moliyalashtirish hozircha asosan davlat subsidiyalari va soliq imtiyozlariga tayangan holda shakllanmoqda. Bu esa bozordagi dastlabki bosqichni aks ettiradi. Xalqaro tajribalar esa shuni ko‘rsatadiki, mustaqil sertifikatlangan green bond’lar va samaradorlikka bog‘liq moliyaviy vositalar investitsion oqimlarni yanada samarali yo‘naltirish imkonini beradi.

Shunday qilib, O‘zbekistonda yashil iqtisodiyotni rivojlantirish jarayonida mavjud mexanizmlarni takomillashtirish, xususan, xususiy sektor ishtirokini kuchaytirish va xalqaro standartlarga moslashtirilgan moliyaviy vositalarni joriy etish zaruriyati yaqqol namoyon bo‘lmoxda.

MUHOKAMA

Ushbu tadqiqot natijalari O‘zbekistonda yashil moliyalashtirish va agro-oziq-ovqat sektoridagi investitsion jarayonlar orasida sezilarli potensial mavjudligini ko‘rsatadi. Biroq mavjud dalillar shuni anglatadiki, ushbu potensial hali to‘liq amalga oshmagani va ko‘plab institutsional, moliyaviy hamda tashkiliy to‘siqlar mavjud.

Birinchidan, yashil moliyaviy vositalarning joriy etilishi, jumladan, green bond’lar bozorida mustaqil sertifikatlash va reyting mexanizmlarining mavjud emasligi ishonchlilik darajasini pasaytiradi. Xalqaro tajribaga ko‘ra, uchinchi tomon tomonidan amalga oshiriladigan baholash tizimlari moliyaviy oqimlarning samaradorligini oshiradi va investorlar ishonchini mustahkamlaydi.

Ikkinchidan, agro-oziq-ovqat tizimida qayta tiklanuvchi energiya texnologiyalarining integratsiyasi yetarli darajada tezlik bilan amalga oshirilmayapti. Bu esa ishlab chiqarish samaradorligi va ekologik barqarorlikni oshirishga to‘sqinlik qiladi. Xususan, suv resurslari samaradorligini oshirish va CO₂ chiqindilarini kamaytirish uchun innovatsion yechimlarga ehtiyoj yuqori.

Uchinchidan, davlat siyosatining strategik hujjatlarida belgilangan vazifalar amaliyotda ko‘proq normativ-huquqiy yondashuvlar bilan chegaralanib qolmoqda. Natijada, investitsiyalarning real samaradorligini baholash mexanizmlari yetarlicha ishlamaydi. Shu sababli, kelgusida siyosat dizaynida natijalarga asoslangan yondashuvlarni kuchaytirish lozim.

Umuman olganda, muhokama qismi shuni ko‘rsatadiki, O‘zbekistonda yashil iqtisodiyot strategiyasini muvaffaqiyatlil amalga oshirish uchun davlat va xususiy sektor o‘rtasidagi hamkorlikni kuchaytirish, xalqaro tajribalarni moslashtirish va innovatsion moliyaviy vositalarni keng joriy etish zarur.

XULOSA

Ushbu ilmiy tadqiqot O‘zbekistonning agro-oziq-ovqat sektorida investitsiyalarni jalg etish va yashil iqtisodiyot konsepsiyasini amaliyotga joriy etish o‘rtasidagi o‘zaro

bog'liqlikni empirik tahlil qilishga qaratildi. Natijalar shuni ko'rsatadiki, mamlakatda umumiy investitsiyalar hajmi sezilarli darajada o'sib borayotganiga qaramay, korxona darajasida samaradorlikning empirik dalillari yetarli emas.

Global tajribalar shuni tasdiqlaydiki, yashil moliyalashtirish vositalari, jumladan green bond'lar, subsidiyalar va soliq imtiyozlari, samarali mexanizmlar sifatida investitsion oqimlarni yanada barqaror rivojlanish yo'nalishlariga yo'naltirishi mumkin. Biroq, O'zbekiston sharoitida ushbu vositalarning amaliy samaradorligi hali to'liq namoyon bo'lgani yo'q.

Quyidagi yo'nalishlarda tavsiyaviy xulosalar keltirish mumkin:

Agrosanoat samaradorligini oshirish: Qishloq xo'jaligining ulushi kamayayotgan bo'lsa-da, u milliy oziq-ovqat xavfsizligining asosiy kafolatidir. Shu sababli yuqori qo'shimcha qiymatga ega mahsulotlarni ishlab chiqarish, zamonaviy texnologiyalar va raqamlashtirish jarayonlarini jadallashtirish lozim.

Yashil moliyalashtirish mexanizmlarini kuchaytirish: Suveren yashil obligatsiyalar va imtiyozli kreditlar orqali fermer xo'jaliklarini va agrosanoat korxonalarini qo'llab-quvvatlash kerak. Bu nafaqat ekologik barqarorlikni, balki investitsion jozibadorlikni ham oshiradi.

Oziq-ovqat xavfsizsizligini yanada kamaytirish: Oziq-ovqat xavfsizsizligining 5% atrofida qolishi davlatning ijtimoiy siyosati uchun muhim chaqiriqdir. Mahalliy ishlab chiqarishni qo'llab-quvvatlash, ijtimoiy himoya dasturlarini kengaytirish va sog'lom ovqatlanish standartlarini joriy etish tavsiya etiladi.

Suv samaradorligini oshirish: FAO Aquastat ma'lumotlariga ko'ra, O'zbekiston hali ham suv resurslariga qattiq bog'liqidir. Suv tejovchi texnologiyalar (tomchilatib sug'orish, raqamli monitoring) keng joriy etilishi kerak.

Xalqaro hamkorlikni kengaytirish: World Bank, FAO, EBRD va IFPRI kabi tashkilotlarning ma'lumotlari shuni ko'rsatadiki, xalqaro grantlar va investitsiyalarni samarali jalb etish O'zbekiston uchun strategik ahamiyatga ega.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Flammer, C. Green bonds: Effectiveness and implications for public policy // Journal of Financial Economics. – 2020. – T. 138, № 2. – S. 401–424. – DOI: 10.1016/j.jfineco.2020.07.004.
2. Lin, T.; Du, M.; Ren, S. How do green bonds affect green technology innovation? // Green Finance. – 2022. – T. 4, № 4. – S. 492–511. – DOI: 10.3934/GF.2022023.
3. Zhang, Q.; va boshq. Green bond issuance and spillover effects of green technology innovation // Systems. – 2024. – T. 12, № 10. – 399 b. – DOI: 10.3390/systems12100399.
4. Demski, J. Growth of the green bond market and greenhouse gas emissions // BIS Quarterly Review. – 2025. – № 3. – S. 45–62.
5. Federal Reserve. The Green Corporate Bond Issuance Premium // IFDP Notes. – Washington, D.C. – 2023. – Rejim dostupa:

<https://www.federalreserve.gov/econres/ifdp/files/ifdp1346.pdf> (murojaat sanasi: 27.09.2025).

6. CEEPR. Why do firms issue green bonds? Examining investor response and greenwashing risk // MIT Center for Energy and Environmental Policy Research. – 2023. – Rejim dostupa: <https://cepr.mit.edu/why-do-firms-issue-green-bonds/> (murojaat sanasi: 27.09.2025).

7. Kurmanov, N.; Kabdullina, G.; Baidakov, A.; Kabdolla, A. Renewable energy, green economic growth and food security in Central Asian countries // International Journal of Energy Economics and Policy. – 2025. – Т. 15, № 2. – С. 175–185. – DOI: 10.32479/ijep.17922.

8. Egamberdiev, B.; va boshq. Fostering resilience for food security in Uzbekistan [Elektron resurs]. – EconStor, 2025. – Rejim dostupa: <https://www.econstor.eu/bitstream/10419/318075/1/Food-Security-in-Uzbekistan.pdf> (murojaat sanasi: 26.09.2025).

9. OECD. Financing Uzbekistan's Green Transition. – Paris: OECD Publishing, 2023. – Rejim dostupa: https://www.oecd.org/en/publications/2023/12/financing-uzbekistan-s-green-transition_6ebf6b94.html (murojaat sanasi: 27.09.2025).

10. Zhang, X.; Kartun-Giles, A. P. Uncovering the network geometry of green bonds // Journal of Sustainable Finance & Investment. – 2025.

11. Zhao, Y.; va boshq. Food security amid the COVID-19 pandemic in Central Asia // Food Security. – 2024. – Т. 16, № 4. – С. 923–941.

12. World Bank. Uzbekistan Climate Adaptation and Resilience Assessment [Elektron resurs]. – 2025.

13. Exploring the Role of Local Crops in Uzbekistan's Food Security and Processing Technologies [Elektron resurs].

14. The State of Food Security in the World [Elektron resurs].

15. Food security: the challenge of the present in Uzbekistan // International Journal of Environmental & Public Health. – yil?

16. Resilient Food Systems through Climate Services for Agriculture in Uzbekistan [Elektron resurs]. – 2025.